


“TASDIQLAYMAN”
Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari
agentligi direktori


A.T. Ubdiyev
2023-yil 2-iyun

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish
DASTURI

T/r	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas’ullar
1.	Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlarni yangi tahrirda tasdiqlash	1. Ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish. 2. Loyihalarni manfaatdor tarkibiy bo’linmalar bilan kelishish. 3. Tasdiqlangan hujjatlarni ijroga qaratish va eskilarini kuchini yo’qotgan deb topish.	2023-yil iyun	Yuridik bo’lim (Korrupsiyaga qarshi kurash va huquqiy nazorat uchun mas’ul)
2.	Agentlik tizimidagi ta’lim muassasalari xodimlari bilan tuzilgan mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish	1. Mehnat shartnomasi loyahasini ishlab chiqish. 2. Amaldagi mehnat shartnomalariga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish	Doimiy	Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo’limi, tizimdagi ta’lim muassasalari
3.	Malaka talablarini ishlab chiqish, tasdiqlash, kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilish	Ichki idoraviy hujjatlar hujjatlarni tasdiqlash	2023-yil iyun	Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo’limi

4.	Budjet intizomini mustahkamlash va budjet to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilish holatlarini profilaktika qilish, budjet xarajatlarning samadorligi va natijadorligini baholash	1. Tizimdagi maktablarning rahbar kadrlari uchun seminar tashkil qilish. 2. Ularni qiyinab kelayotgan muammolarga yechim berish	2023-yil dekabr	Moliya-iqtisod boshqarmasi
5.	Tizimdagi muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularning bino va inshootlaridan foydalanish bo'yicha ishlar monitoringini olib borish va ushbu ishlarni muvofiqlashtirish	1. Tizimdagi maktablarning rahbar kadrlari uchun seminar tashkil qilish. 2. Budjet va smeta-shtat intizomiga rioya qilinishi nazoratini tashkil qilish va amalga oshirish, budjetga keltirilgan zararni qoplash bo'yicha choralarini qabul qilish, budjet va smeta-shtat intizomini buzgan shaxslarni javobgarlikka tortish choralarini ko'rish.	2023-yil dekabr	Buxgalteriya hisobi bo'limi
6.	Davlat xaridlari bilan bog'liq kontragentlar bilan tuziladigan shartnomalarda korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha asosiy shartlarning majburiy kiritilishini ta'minlash.	1. Asosiy shartlar loyahasini ishlab chiqish. 2. Barcha shartnomalarda mazkur shartlarni nazarda tutish.	Doimiy	Moddiy-texnik ta'minot bo'limi, Yuridik bo'lim
7.	Tovar-moddiy boyliklarni adolati taqsimlanishini ta'minlash, bunda xodimlarning ish hajmi va haqiqiy ehtiyojidan kelib chiqib ta'minlash hamda nazorat qilish.	1. So'rov bildirilganda ehtiyoj mavjudligini aniqlash. 2. Berilgan tovar-moddiy boyliklar hisobini yuritish.	Doimiy	Moddiy-texnik ta'minot bo'limi
8.	Ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlarning	1. Qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlarda ochiq	Belgilangan muddatlarda	Axborot xizmati,

	belgilangan muddatlarda joylashtirilib borilishini ta'minlash	ma'lumotlarning joylashtirilishini monitoring qilish. 2. Ma'lumotlarni joylashtirish va taqdim qilish uchun mas'ul bo'lgan xodimlarni ogohlantirish, vazifasini bajarmagan xodimlarni javobgarlikka tortish haqida taklif kiritish		Tashkiliy nazorat va murojaatlar bilan ishlash bo'limi
9.	Xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish borasida qabul qilingan normativ-huquqiy hamma idoraviy hujjatlardan xabardorligini ta'minlash	1. Qabul qilingan hujjatlarning mazmun-mohiyati haqida Agentlik rahbariyati huzurida o'tkaziladigan yig'ilishlarda tushuntirishlar berish. 2. Zaruriyat bo'lganda xodimlarning mas'uliyatini oshirish maqsadida shu kabi hujjatlar bilan imzo qo'ydirgan holda tanishtirish	Doimiy	Yuridik bo'lim (Korrupsiyaga qarshi kurash va huquqiy nazorat uchun mas'ul)

**Korrupsiyaga qarshi kurash va huquqiy nazorat uchun mas'ul,
Yuridik bo'lim boshlig'i**

U.T.Muxammadiyev